

## 2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida Jizzax viloyatida 3330 ta yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 890 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3123 ta (21,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 17823 tani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 17823 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,2 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,0 % savdo, 16,2 % sanoat, 14,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,4 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 25,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>14700</b>	<b>17823</b>	<b>121,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2236	2641	118,1	14,8
Sanoat	2311	2893	125,2	16,2
Qurilish	1371	1848	134,8	10,4
Savdo	2769	3738	135,0	21,0
Tashish va saqlash	526	601	114,3	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	995	1153	115,9	6,5
Axborot va aloqa	192	199	103,6	1,1
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	203	250	123,2	1,4
Boshqa turlari	4097	4500	109,8	25,2

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5479 ta), Sharof Rashidov (2939 ta), Zomin (1455 ta), G'allaorol (1366 ta) va Forish (1235 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (396 ta), Zafarobod (500 ta) hamda Arnasoy (552 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 16994 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2991 taga (21,4 %) o'sgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan****korxonalar va tashkilotlar ulushi***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5201 ta), Sharof Rashidov (2859 ta), Zomin (1379 ta), G'allaorol (1348 ta) va Forish (1181 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (374 ta), Zafarobod (430 ta) hamda Arnasoy (552 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-oktabr oylarida 3330 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 890 taga ko'pdir.

**Yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (994 ta), Sharof Rashidov (579 ta), Zomin (284 ta) va G'allaorol (260 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (79 ta), Zafarobod (81 ta), Arnasoy (113 ta), Mirzacho'l (122 ta), Do'stlik (129 ta) hamda Paxtakor (140 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1008 ta), sanoat (695 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (497 ta), qurilish (412 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalarida (158 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (39 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (44 ta), tashish va saqlash (88 ta) hamda boshqa faoliyat turlari (389 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Tijorat korxonalari**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga 13858 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4201 ta, oilaviy korxonalar – 720 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8607 ta va boshqalar 330 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 181 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 66 taga yoki 57,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 181 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqорisi Jizzax shahri (76 ta), Forish (20 ta), G'allaorol (14 ta), Sharof Rashidov (14 ta) va Zomin (14 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho'l (1 ta), Zarbdor (2 ta), Do'stlik (4 ta) hamda Baxmal tumanlarida (5 ta) to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 118 tasi qo'shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>181</b>	<b>118</b>	<b>63</b>
Jizzax shahri	76	56	20
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	8	6	2
Baxmal	5	3	2
G'allaorol	14	10	4
Sharof Rashidov	14	6	8
Do'stlik	4	2	2
Zomin	14	7	7
Zarbdor	2	1	1
Zafarobod	6	1	5
Mirzacho'l	1	1	-
Paxtakor	8	7	1
Forish	20	15	5
Yangiobod	9	3	6

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 57 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahar (21 ta yoki jamidagi ulushi 36,8 %), Forish (8 ta yoki 14,0 %) va Zomin tumanlari (5 ta yoki 8,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Zarbdor va Paxtakor (1 ta yoki 1,8 %), Baxmal (2 ta yoki 3,5 %), Sharof Rashidov (3 ta yoki 5,3 %) hamda Zafarobod tumanlari (3 ta yoki 5,3 %) hissalariga to'g'ri keladi..

### 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 23 ta, Rossiya Federatsiyasi - 15 ta, Turkiya Respublikasi - 6 ta, Qozog'iston Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 3 ta korxonalar yangi

ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (32 ta yoki 56,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta yoki 19,3 %), savdo (5 ta yoki 8,8 %) va qurilish (5 ta yoki 8,8 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta yoki 1,8 %), tashish va saqlashda (1 ta yoki 1,8 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 ta yoki 1,8 %) tashkil etgan.


### 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



### Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13814 tani tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 26,1 % ga oshgan. Faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya`ni 4470 tasi (32,4 %) Jizzax shahri, 2511 tasi (18,2 %) Sharof Rashidov, 1082 tasi (7,8 %) G`allaorol hamda 1075 tasi (7,8 %) Zomin tumanlari hissalariga to`g`ri keladi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi, % da (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



● Jizzax sh. ● Arnasoy ● Baxmal ● G`allaorol ● Sharof Rashidov ● Do'stlik ● Zomin ● Zarbdor  
● Zarbdor ● Mirzacho'l ● Paxtakor ● Forish ● Yangiobod

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13814 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3534 tasi (25,6 %) - savdo, 2738 tasi (19,8 %) - sanoat, 2449 tasi (17,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1782 tasi (12,9 %) - qurilish, 1082 tasi (7,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 572 tasi (4,1 %) - tashish va saqlash, 163 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 160 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa sohasi va 1334 tasi (9,7 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalarning soni to'g'risida MA'LUMOT

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Ro'yxatdan o'tgan 01.11.2019 y.	Faoliyat ko'rsatayotgan 01.11.2019 y.	Yangi tashkil etilgan 2019 yil yanvar- oktabr	birlikda
		14546	13814	3130
Jizzax viloyati	4705	4470	948	
Jizzax shahri				

tumanlar:

Arnasoy	418	418	108
Baxmal	766	713	136
G'allaorol	1097	1082	248
Sharof Rashidov	2585	2511	540
Do'stlik	520	493	119
Zomin	1138	1075	277
Zarbdor	602	583	150
Zafarobod	354	286	74
Mirzacho'l	488	436	112
Paxtakor	542	482	132

Forish	1026	981	219
Yangiobod	305	284	67


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktabr oylarida 3130 dan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1107 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahri (948 ta), Sharof Rashidov (540 ta), Zomin (277 ta) va G'allaorol tumanlari (248 ta) hissasiga to'g'ri

keladi. Eng kam Yangiobod (67 ta), Zafarobod (74), Arnasoy (108 ta) hamda Mirzacho'l (112) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1008 ta), sanoatda (693 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (495 ta) va qurilishda (412 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash

va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (32 ta), axborot va aloqada (39 ta) hamda tashish va saqlashda (88 ta) tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 762 tani tashkil etib, ulardan 720 tasi yoki 94,5 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 47,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

#### Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda


	01.11.2019 y.		2019 yil yanvar-oktabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jizzax viloyati	762	720	233
Jizzax shahri	193	186	59
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5	5	-
Baxmal	40	35	3
G'allaorol	54	54	24
Sharof Rashidov	195	188	54
Do'stlik	59	55	15
Zomin	68	62	32
Zarbdor	30	30	12
Zafarobod	42	34	11
Mirzacho'l	9	9	4
Paxtakor	12	10	6

Forish	44	41	8
Yangiobod	11	11	5

### Oilaviy korxonalar soni, birlikda



### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari  
kesimida qaralganda ularning 43,5 % yoki 313 tasi sanoat, 20,6 % yoki

148 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,9 % yoki 107 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,6 % yoki 91 tasi savdo, 0,6 % yoki 4 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 2 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 7,1 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda**


	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	233	100,0
Jizzax shahri	59	25,3

*tumanlar:*

Arnasoy	-	-
Baxmal	3	1,3
G'allaorol	24	10,3
Sharof Rashidov	54	23,2
Do'stlik	15	6,4
Zomin	32	13,7
Zarbdor	12	5,2
Zafarobod	11	4,7
Mirzacho'l	4	1,7
Paxtakor	6	2,6
Forish	8	3,4
Yangiobod	5	2,2

2019-yil yanvar-oktabr oylarida 233 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 53,3% ga ko'proqdir Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Jizzax shahri (59 ta), Sharof Rashidov (54 ta), Zomin (32 ta) va G'allaorol tumanlari (24 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Baxmal (3 ta), Mirzach'ol (4 ta), Yangiobod (5 ta) hamda Paxtakor (6 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 53,6 % yoki 125 tasi sanoat, 16,3 % yoki 38 tasi savdo, 14,6 % yoki 34 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha

xizmatlari, 10,3 % yoki 24 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 0,4 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4,8 % yoki 11 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

**KTYADR** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagagi 66-son qaroriga asosan ro'yxatdan o'tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.



**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'llimi  
Tel.:71-230-83-65 (66)**